



Market review report

March 2025

Investitsion banking department

O'zbekiston 1,5 mlrd. USD Yevrobond, 400 mln. USD yoshlar tadbirkorligi tashabbusi va 2,6 mlrd. USD nodir metallar loyihasi orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirmoqda. Turkmaniston bilan erkin savdo rejimi savdoni oshiradi, 200 mln. so'm depozit sug'urtasi limiti esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

2025-yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi London fond birjasida (lse) suveren Yevrobondlarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Bu esa O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligi va moliya bozorlariga bo'lgan investorlar ishonchining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Emissiya quydagilardan iborat edi:

AQSH dollarida denomatsiyalangan tranş: 500 million AQSH dollari, 7 yillik muddat bilan, 6.95% kupon stavkasi.

Yevroda denomatsiyalangan tranş: 500 million yevro, 4 yillik muddat bilan, 5.1% kupon stavkasi.

So'mda denomatsiyalangan tranş: 6 trillion so'm, 3 yillik muddat bilan, 15.5% kupon stavkasi.

2025-yil 1-apreldan boshlab, farmatsevtika mahsulotlari savdosi yoki tibbiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi barcha biznes subyektlari aylanmadan qat'i nazar, avtomatik tarzda QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatga olinadi. Shuningdek, tadbirkorlarning xalqaro moliya bozorlariga chiqishini qo'llab-quvvatlash uchun yangi markaz tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yangi qonun imzolandi. Unga ko'ra, fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash miqdori **200 million so'mgacha** etib belgilandi. Bu o'zgarish O'zbekistonning bank reglamentlarini xalqaro amaliyotga moslashtiradi. Ushbu omonat sug'urtasi chegarasi omonatchilarning 97 foizining mablag'larini qamrab oladi, bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlab, mavjud omonatlar bo'yicha to'liq kafolatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va ish o'rirlari yaratishni qo'llab-quvvatlash maqsadida **400 million AQSH dollari** miqdoridagi tashabbusni yo'lga qo'yemoqda. Uchta asosiy dastur doirasida yosh tadbirkorlar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga moliyaviy ko'mak, kreditlar va biznesni rivojlantirish bo'yicha xizmatlar taqdim etiladi.

100 million AQSH dollari miqdoridagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi" yosh innovatorlarga o'z bizneslarini rivojlantirishda ko'maklashish maqsadida **2,5 milliard so'mgacha** imtiyozli kreditlar hamda 2 milliard so'mgacha startap investitsiyalarini taqdim etadi.

Yoshlar bandsizligiga barham berish maqsadida **100 million AQSH dollari O'zbekiston Milliy bankiga (NBU)** ajratiladi. Ushbu mablag' mahalliy hokimiyatlar, tijorat banklari va korxonalar bilan hamkorlikda bitiruvchilar uchun yangi bank xizmatlarini joriy etishga yo'naltiriladi.

"Aloqabank" **200 million AQSH dollari** asosida "yoshlar banki"ga aylantiriladi. Bank o'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun **100 million so'mgacha** mikrokreditlar, **20** nafardan ortiq ishchi ishlataligani kichik korxonalar uchun esa **5 milliard** so'mgacha biznes kreditlarini taqdim etadi. Kredit mablag'larining kamida **30** foizi ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, biznes-inkubatorlar va "Aloqa Venture Fund" orqali startaplarga **50 mingdan 1 million AQSH dollarigacha** bo'lgan investitsiyalar ajratilib, ularning ichki va xalqaro bozorlarda kengayishiga ko'mak beriladi.


O'zbekiston kelgusi uch yil davomida **2,6 milliard AQSH dollari** miqdoridagi investitsiyalar hisobiga nodir metallarni qazib olish va qayta ishlashga yo'naltirilgan **76 ta** loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Ushbu tashabbus doirasida molibden va volfram zaxiralari boy bo'lgan Toshkent va Samarcand viloyatlarida texnoparklar tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Loyiha O'zbekistonning kon sanoatini rivojlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatni global bozorlarda muhim yetkazib beruvchi sifatida mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbekiston va Turkmaniston erkin savdo tartibini joriy etdi. 2025-yil yanvarida ratifikatsiya qilingan bitimga ko'ra, mahalliy mahsulotlarga boj bekor qilindi (ayrim tovarlar mustasno). Turkmaniston O'zbekiston sementiga (100%), to'qimachilikka (50%), mebelga (50%), shisha mahsulotlarga (50%) va go'shtga (2 USD/kg) bojlarni olib tashladi. 2024-yilda savdo hajmi 5,5% ga oshib, 1,14 mlrd AQSH dollariga yetdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish, sanoatni rivojlantirish va iqtisodni diversifikatsiya qilish yo'lida keng islohotlarni amalga oshirdi. Valutani erkinlashtirish, infratuzilmani yangilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish asosiy yo'naliishlar bo'ldi. 2025-yilga borib, mamlakat barqaror o'sish va global bozorlarga integratsiya orqali yetakchi mintaqaviy iqtisodiyotga aylanishni maqsad qilgan.

	YAIM o'sishi					
	2021	2022	2023	2024*	2025*	2026*
O'zbekiston	7.4%	5.7%	6.0%	6.0%	5.8%	5.9%
MDH mamlakatlari:						
Qozog'iston	4.3%	3.2%	5.1%	4.0%	4.7%	3.5%
Qirg'iz Respublikasi	5.5%	9.0%	6.2%	5.8%	4.5%	4.5%
Tojikiston	9.4%	8.0%	8.3%	8.0%	6.0%	5.0%
Turkmaniston	-0.3%	5.3%	2.0%	2.3%	2.3%	xxx
Rossiya	5.6%	-2.1%	3.6%	3.4%	1.6%	1.1%
Gruziya	10.6%	11.0%	7.5%	9.0%	6.0%	5.0%
Armaniston	5.8%	12.6%	8.7%	5.5%	5.0%	4.6%
Ozarbayjon	5.6%	4.7%	1.1%	4.0%	2.7%	2.4%
Moldova	13.9%	-5.0%	0.8%	2.8%	3.9%	4.5%
Ukraina	3.4%	-28.8%	5.3%	3.2%	2.0%	7.0%
Belorussiya	2.4%	-4.7%	3.9%	4.0%	1.2%	0.8%
Estoniya	7.2%	-0.5%	-3.0%	-1.0%	1.1%	xxx
Latviya	6.7%	3.0%	-0.3%	0%	1.0%	xxx
Litva	6.3%	2.4%	-0.3%	2.2%	3.0%	xxx
Yirik mintaqalar:						
Yevropa & Markaziy Osiyo	6.5%	3.2%	1.0%	3.2%	2.5%	2.7%
Lotin Amerikasi & Karib mintaqasi	7.0%	4.0%	2.2%	2.2%	2.5%	2.5%
Shimoliy Amerika	5.8%	2.1%	2.4%			
Yaqin Sharq & Shimoliy Afrika	5.6%	5.7%	1.8%	1.8%	3.4%	4.1%
Janubiy Osiyo	8.8%	6.3%	6.4%	6.0%	6.2%	6.2%
Sharqi Osiyo & Tinch okeani	6.2%	2.9%	4.1%	4.9%	4.6%	4.1%
Sahroi Afrika	4.3%	3.7%	2.9%	3.2%	4.1%	4.3%

*forecast by World Bank



O'zbekistonning suveren kredit reytinglari

Moody's	Fitch Ratings	S&P Global
Ba3 / Barqaror	BB- / Barqaror	BB- / Barqaror

Qozog'istonning suveren kredit reytinglari

Moody's	Fitch Ratings	S&P Global
Baa1 / Barqaror	BBB / Barqaror	BBB- / Barqaror

Qirg'izistonning suveren kredit reytinglari

Moody's	Fitch Ratings	S&P Global
B3 / Barqaror	XXX	XXX

Tojikistonning suveren kredit reytinglari

Moody's	Fitch Ratings	S&P Global
B3 / Ijobiy	XXX	B / Barqaror

2025-yil 13-mart holatiga ko'ra, USD/UZS kursi **12 920,00 so'mni** tashkil etib, uzoq muddatli devalvatsiya tendensiyasini ko'rsatmoqda. So'nggi 5 yilda so'm **35,99%** ga qadrsizlandi, bu makroiqtisodiy bosimlar, tashqi qarz majburiyatlar va savdo nomutanosibliklari bilan bog'liq. Qisqa muddatli o'zgarishlarga qaramay, umumiy yo'nalish strukturaviy omillar ta'sirida davomli pasayishni anglatadi va iqtisodiy choralarni talab qiladi.

Qisqa muddatli bozor ko'rsatkichlari

Kunlik o'zgarish (DoD): -0,0923%, bu esa valyuta likvidligidagi o'zgarishlar tufayli oz miqdordagi mustahkamlanishni ko'rsatmoqda.

Haftalik o'zgarish (WoW): +0,1522%, bu esa savdo hisob-kitoblari va qisqa muddatli kapital oqimlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan o'sib borayotgan beqarorlikni anglatadi.

Oylik o'zgarish (MoM): -0,4003%, bu AQSH dollarining biroz mustahkamlanishini aks ettirib, rivojlanayotgan bozor valyutalaridagi umumiy tendensiyalarga mos keladi.

Ushbu qisqa muddatli harakatlar AQSH dollari likvidligiga bo'lgan tashqi talab bilan izohlanayotgan bo'lsa-da, uzoq muddatli devalvatsiya ichki strukturaviy muammolarga ishora qiladi.

Uzoq muddatli devalvatsiya tendensiyalari

Choraklik o'zgarish (QoQ): +0,4659%, bu asta-sekin davom etayotgan pasayish tendensiyasini yana bir bor tasdiqlaydi


Yillik o'zgarish (YoY): +3,0795%, bu inflyatsiya va savdo nomutanosibliklari oqibatida davom etayotgan devalvatsiyani ko'rsatadi.

Uch yillik (3Y) devalvatsiya: 17,91%, bu makroiqtisodiy samarasizliklar va tashqi moliyalashtirish bosimlarini aks ettiradi.

Besh yillik (5Y) devalvatsiya: 35,99%, bu doimiy strukturaviy muammolar va global moliyaviy sikllarning ta'sirini yaqqol ko'rsatadi.

USD/UZS kursining harakati tashqi bosimlar va ichki iqtisodiy cheklolvar uyg'unligidan dalolat beradi. Qisqa muddatda barqarorlashuv ehtimoli mavjud bo'lsa-da, uzoq muddatli tendensiya zaiflikning davom etishini ko'rsatmoqda. Buni bartaraf etish uchun O'zbekiston valyuta bozorini isloh qilishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishi va makroiqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishi zarur.

Valyuta kursi (USD / UZS) Dekabr 2024



USD/UZS Valyuta kursi

o'zgarishlari **13.03.2025**

USD/UZS	12 920,00
DoD – 1 kunlik o'zgarish	-0,0923%
WoW - 7 kunlik o'zgarish	+0,1522%
MoM - 30 kunlik o'zgarish	-0,4003%
QoQ - 90 kunlik o'zgarish	+0,4659%
YoY - 365 kunlik o'zgarish	+3,0795%
3Y o'zgarish - 1095 kunlik o'zgarish	+17,9116%
5Y o'zgarish - 1825 kunlik o'zgarish	+35,9923%

Kross-kurs o'zgarishlari (13.03.2025)

USD/EUR	0,92
USD/RUB	86,41
USD/CNY	7,24
USD/CHF	0,88
USD/GBP	0,77
USD/JPY	148,61



2020-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'zining pul-kredit siyosati inflyatsiyani maqsadli boshqarish rejimi doirasida amalga oshirib kelmoqda. Ushbu rejim doirasida Markaziy bank 2027-yilgacha inflyatsiya darajasini 5% ga tushirishni maqsad qilgan. Barcha siyosiy chora-tadbirlar inflyatsiyani belgilangan maqsadga yaqin darajada ushlab turishga, narxlар barqarorligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Global iqtisodiyot muhim burilish nuqtasida turibdi. Davlat va iste'mol qarzining rekord darajadagi ko'rsatkichlari hamda yuqori foiz stavkalari siyosatchilar uchun jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Markaziy banklar infliyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni saqlab qolish o'rtaida muvozanatni topishga, hukumatlar esa qarz xizmatiga to'lanadigan xarajatlarning ortib borishini hal etishga majbur. 2025-yilgi prognozlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda foiz stavkalari pandemiyadan oldingi darajadan yuqori bo'lib qolishi mumkin, biroq rivojlanayotgan va o'rta daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich **2-3%** oralig'iда o'smoqda.

Davlat qarzining YAIMga nisbati (%)

2020 2021 2022 2023 2024 2025* 2026*

MDH mamlakatlari:

	2020	2021	2022	2023	2024	2025*	2026*
O'zbekiston	33,7	31,7	30,5	32,5	34,3	32,8	31,4
Qozog'iston	26,4	25,1	23,5	22,8	24,8	27,6	30,0
Qirg'iz Respublikasi	63,6	56,2	46,8	44,7	41,8	41,2	41,8
Tojikiston	51,8	42,1	32,5	30,9	30,7	30,1	29,3
Rossiya	19,2	16,4	18,5	19,5	19,9	20,4	21,4
Moldova	36,6	33,6	34,9	35,3	36,9	34,8	32,7
Ukraina	41,3	36,3	32,1	32,4	31,4	31,3	30,7
Belorussiya	47,5	41,2	41,3	40,7	41,4	40,3	40,6
Estoniya	18,3	17,6	18,3	19,3	21,8	25,4	28,7
Latviya	42,7	44,4	41,8	43,6	45,2	45,7	46,0
Litva	46,3	43,4	38,0	38,3	38,1	37,9	37,6


Iqtisodiyot guruhlari:

Rivojlangan iqtisodiyotlar	121,8	115,4	109,9	108,7	109,4	111,0	112,0
Yangi rivojlanayotgan bozorlar va o'rta daromadli iqtisodiyotlar	65,5	64,7	64,9	69,4	70,8	73,0	75,0
Kam daromadli rivojlanayotgan davlatlar	49,1	49,1	50,4	53,5	53,2	50,9	49,0

*forecast by World Bank

2024-yilning to'rtinchi choragida O'zbekistonning tashqi qarzi biroz oshdi. Natijada, umumiy qarz hajmi **39 million AQSH dollaridan 40 million AQSH dollarigacha** ko'paydi. Shu bilan birga, ichki qarz miqdori biroz kamaydi. Jadvalda ko'rsatilganidek, O'zbekistonning xorijiy valyuta zaxiralari ham oz miqdorda o'sdi.


Xorijiy zaxiralar va qarz dinamikasi



	Mln USD	2021	2022	2023	Q1 2024	Q2 2024	Q3 2024	Q4 2024
Xorijiy valyuta zaxiralari		33 851,30	35 139,20	34 564,70	34 190,30	36 340,60	41 139,10	41 181,6
Tashqi qarz		23 582,23	25 914,02	29 638,67	29 464,00	30 899,00	32 216,00	33 720,00
Ichki qarz		2 741,11	3 317,36	5 288,49	5 885,00	6 330,00	6 857,00	6 479,00
Umumiy qarz		26 323,35	29 231,38	34 927,17	35 349,00	37 229,00	39 073,00	40 199,00

Xorijiy zaxiralar

(milliard AQSh dollarida)





14.02.2025: Rossiya Markaziy banki 2025-yil fevral oyida asosiy foiz stavkasini **21%** darajasida saqlab qoldi, bu 2024-yil o'rtalaridan buyon bir qator oshirishlardan keyingi qaror bo'ldi. Markaziy bank raisi Elvira Nabiullina inflyatsion bosimlarni jilovlash uchun ma'lumotlarga asoslangan yondashuv muhimligini ta'kidladi hamda mavjud geosiyosiy muammolar fonida iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash zarurligini tan oldi.




07.03.2025 : Qozog'iston Milliy banki asosiy stavkani **125** baza punktiga oshirib, **16,5%** ga yetkazdi. Ushbu qaror inflyatsion bosimning kuchayishiga javoban qabul qilindi. Maqsad — tengeni barqarorlashtirish va **9,4%** gacha tezlashgan inflyatsiyani jilovlashdir. Shuningdek, Markaziy bank valyuta kursining qadrsizlanishini kamaytirish va inflyatsiyani nazorat qilish maqsadida yiliga qo'shimcha **5,5–6,0 milliard AQSH dollari** miqdorida xorijiy valyutani sotishni rejalashtirayotganini e'lon qildi.



12.03.2025: Yevropa Markaziy banki (ECB) foiz stavkasini **2,50%** ga tushirdi, bu 2024-yil o'rtalaridan beri oltinchi marta pasaytirilishi hisoblanadi. ECB rahbari Kristin Lagard inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash o'rtaida muvozanatni saqlagan holda, ma'lumotlarga asoslangan strategiyaga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu qaror Yevrozona iqtisodiyotining sust o'sishi va global savdodagi noaniqliklar bilan bog'liq xavotirlarni aks ettiradi hamda moliyaviy barqarorlik bo'yicha ehtiyyotkor ijobjiy kayfiyatni bildiradi..



13.03.2025: O'zbekiston Markaziy banki (OMB) asosiy stavka bo'yicha Boshqaruv yig'ilishini 2025-yil 13-martdan 20-martga ko'chirdi. Bu qaror fevral oyi uchun mahalliy va tashqi savdo hamkorlaridan olingan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil va prognozlarga kiritish imkonini beradi. 2025-yil 23-yanvar holatiga ko'ra, OMB asosiy stavkani yillik **13,5%** darajasida saqlab qolgan bo'lib, **5%** inflyatsiya maqsadiga erishishda qat'iy pul-kredit sharoitlarining muhimligini ta'kidlagan.



<i>Markaziy banklarning asosiy stavkalari:</i>	<i>Joriy stavka</i>	<i>So`ngi yig`ilish</i>	<i>O`zgarish</i>	<i>Keyingi yig`ilish</i>
O'z.Res. Markaziy banki	13,50%	25.01.2025	no change	20.03.2025
Qozog'iston Milliy banki	16,50%	07.03.2025	+125 bps	11.04.2025
Tojikiston Milliy banki	8,75%	10.02.2025	-25 bps	XXX
Qirg'iziston Milliy banki	9,00%	24.02.2025	no change	28.04.2025
Rossiya Banki	21,00%	14.02.2025	no change	21.03.2025
AQSH Federal Rezerv	4,50%	28.01.2025	no change	18.03.2025
Yevropa Markaziy Banki	2,50%	12.03.2025	-25 bps	16.04.2025
Angliya Banki	4,50%	06.02.2025	-25 bps	20.03.2025
Xitoy Xalq Banki	3,10%	27.12.2024	no change	29.03.2025
Yaponiya Banki	0,50%	23.01.2025	+25 bps	18.03.2025
Shvetsariya Milliy Banki	0,50%	12.12.2024	-50 bps	20.03.2025
Hindiston Rezerv Banki	6,25%	06.02.2025	-25 bps	03.04.2025

UZONIA stavkalari va bozor tahlili

UZONIA stavkalari

(13.03.2025)

- 1 kunlik stavka:** 12,2321%, bu 0,7679% ga kamayganini aks ettirib, qisqa muddatli likvidlik sharoitlarining yaxshilanganini ko'rsatadi.
- 7 kunlik stavka:** 11,9503%, bu 0,9095% ga kamaygan bo'lib, qisqa muddatli bozorda moliyalashtirish bosimi kamayganini anglatadi.
- 30 kunlik stavka:** 12,4742%, bu 0,7045% ga pasaygan bo'lib, likvidlik mavjudligining yaxshilanganini anglatadi.
- 90 kunlik stavka:** 13,0756%, biroz 0,2736% ga kamaygan bo'lib, o'rta muddatli likvidlikning barqarorlashganini aks ettiradi.
- 180 kunlik stavka:** 13,5203%, 0,1528% ga kamaygan bo'lib, o'rta muddatli moliyalashtirish sharoitlarining yanada yengillashayotganini ko'rsatmoqda.
- Index:** 156,7459, 1,6397% ga oshgan bo'lib, qisqa muddatli pul bozoridagi faollik ortayotganini ko'rsatmoqda.

Dilerlararo REPO bozori(01.02.2025 – 13.03.2025)

- 1 kunlik o'rtacha:** 12,89%, 0,10% ga kamaygan bo'lib, zudlikdagi likvidlikda biroz yaxshilanishni ko'rsatmoqda.
- 2-3 kunlik o'rtacha:** 13,07%, 0,19% ga kamaygan bo'lib, qisqa muddatli moliyalashtirish xarajatlarida mo'tadil yengillikni anglatadi.
- 4-7 kunlik o'rtacha:** 13,88%, 0,07% ga kamaygan bo'lib, hafta davomida likvidlik sharoitlarining yaxshilanganini aks ettiradi.

Banklararo pul bozori (01.02.2025 – 13.03.2025)

- 1 kunlik stavka:** 12,49%, 1,11% ga kamaygan bo'lib, qisqa muddatli likvidlik mavjudligi oshganini anglatadi.
- 2-7 kunlik stavka :** 13,03%, 0,87% ga kamaygan bo'lib, qisqa muddatli moliyalashtirish sharoitlarining yaxshilanganini aks ettiradi.
- 8-30 kunlik stavka:** 17,00%, 0,67% ga oshgan bo'lib, o'rta muddatli likvidlikda biroz qisqarishni ko'rsatmoqda.
- 31-90 kunlik stavka:** 18,09%, 0,19% ga oshgan bo'lib, uzoq muddatli mablag'larga bo'lgan talab ortganini ko'rsatmoqda.

Markaziy bank faoliyati(13.03.2025)

- Repo stavkasi:** 13.62%, decreasing by **0.16%**, suggesting easing liquidity conditions.
- Depozit stavkasi:** 13.50%, unchanged, indicating stability in short-term deposit conditions.

UZONIA (13.03.2025)

Muddatlar	Stavka	O'zgarish
1 kunlik	12,2321%	-0,7679%
7 kunlik	11,9503%	-0,9095%
30 kunlik	12,4742%	-0,7045%
90 kunlik	13,0756%	-0,2736%
180 kunlik	13,5203%	-0,1528%
Indeks	156,7459%	1,6397%

Dilerlararo repo

01/02/2025 - 13/03/2025

Muddatlar	Stavka	Trend
1 kunlik o'rtacha	12,89%	-0,10%
2-3 kunlik o'rtacha	13,07%	-0,19%
4-7 kunlik o'rtacha	13,88%	-0,07%

Banklararo pul bozori

01/02/2025 - 13/03/2025

Muddatlar	Stavka	Trend
1 kunlik	12,49%	-1,11%
2-7 kunlik	13,03%	-0,87%
8-30 kunlik	17,00%	+0,67%
31- 90 kunlik	18,09%	+0,19%

13/03/2025

Markaziy Bank (MB) auksioni	Muddatlar	Stavka	Trend
Markaziy bankning depozit auksioni	1 haftalik	13,62%	-0,16%
Markaziy bankning depozit auksioni	1 haftalik	13,50%	0%




Daromadlilik egri chizig'i (yield curve) turli muddatlarda hukumat qimmatli qog'ozlari (g'aznachilik obligatsiyalari – T-Bonds) bo'yicha daromad stavkalarini aks ettiradi.

Egri chiziq qisqa muddatli obligatsiyalar uchun **13,61%** darajasidan boshlanib, uzoq muddatli (**10 yillik**) obligatsiyalar uchun **17,59%** gacha ko'tariladi. Bunday yuqoriga qarab yo'nalgan egri chiziq bozorning ijobiy kutilmalarini anglatadi: uzoq muddatli obligatsiyalar bo'yicha yuqori daromadlar investorlarning inflyatsiya oshishi yoki xavflarning ortishini kutayotganini bildiradi. Daromadlarning izchil o'sishi bozordagi ishonchning ortgani va hukumat tomonidan investitsiya muhitini jozibadorligini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarini

Davlat qimmatli qog'ozlari birlamchi dilerlari



- 1 NBU
- 2 Xalq banki
- 3 Business development bank
- 4 Asaka bank
- 5 Ipak yo`li bank
- 6 Ipoteka bank
- 7 Asia alliance bank
- 8 Kapitalbank




*As of 01/03/2025

*trillion UZS

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan DQQ hajmi



Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi




O'zbekistonda Davlat Qimmatli Qog'ozlar Bozorining Rivojlanishi

O'zbekistonda ichki hukumat qimmatli qog'ozlar bozori sezilarli darajada kengaydi. 2018-yildan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) tomonidan T-obligatsiyalar (g'aznachilik obligatsiyalari) emissiyasi muntazam ravishda oshirib borilmoqda. 2024-yilda emissiyalar hajmi **34,16 trillion so'mga** yetdi, 2025-yil boshidan esa yana **8,30 trillion so'mlik** obligatsiyalar chiqarildi. Hozirda davlat qarzining **16 foizi** ichki **T-obligatsiyalar** orqali moliyalashtirilmoqda, bu esa ichki qarz olishga bo'lgan qaramlikning ortayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Markaziy banki (OMB) bank tizimidagi qisqa muddatli likvidlik ehtiyojlarini qoplash maqsadida 8 trillion so'mlik qimmatli qog'ozlar

2019-yildan buyon O'zbekiston xalqaro moliya bozorlaridagi ishtirokini kengaytirgan holda, jami **14** tranjidan iborat **6 marotaba** muvaffaqiyatli Euroobligatsiyalar emissiyasini amalga oshirdi. Ushbu emissiyalar orqali jami taxminan **3,95 milliard AQSH dollarri, 1,1 milliard yevro va 17,75 trillion so'm miqdorida tashqi qarz jalb qilindi.**

2025-yil fevral oyida O'zbekiston navbatdagi Euroobligatsiyalarini London fond birjasida (LSE) joylashtirdi va jami **1,5 milliard AQSH dollarri** miqdorida mablag' jalb qildi. Ushbu obligatsiyalar asosan LSEda ro'yxatga olingan bo'lib, ular **Regulation S va Rule 144A** standartlariga muvofiq chiqarilgan. Bu esa global investorlar uchun O'zbekistonning suveren qarz majburiyatlarini sotib olish imkoniyatini yaratdi.

Ikkilamchi savdo daromadlilik dinamikasi



EUR 500mln **5.1%** 2029 yilga qadar,
(buyurtmalar miqdori > EUR 2.0mlrd)
UZS 6.0trillion **15.5%** 2028 yilga qadar,
(buyurtmalar miqdori > UZS 4.tn)
USD 500mln **6.95%** 2032 yilga qadar,
(buyurtmalar miqdori > USD 2,9bn)
Febral 2025



SDG Obligatsiyasi EUR 600 mln 5.375% 2027-yilga qadar (buyurtmalar miqdori > EUR 2,0 mlrd)
UZS 3,0 trillion 16,625% 2027-yilga qadar
(buyurtmalar miqdori > UZS 4 trillion)
USD 600 mln 6,9% 2032-yilga qadar
(buyurtmalar miqdori > USD 2,9 mlrd)
May 2024



USD 660 mln **7,85%** 2028 yilga qadar
(buyurtmalar miqdori > USD 2,1 milliard)
Yashil obligatsiya UZS 4,25 trillion 15,25% 2026-yilga qadar
(buyurtmalar miqdori > UZS 4,4 trillion)
Oktabr 2023



USD 635 million **3,9%** 2031-yilga qadar
(buyurtmalar miqdori > USD 2,2 milliard)
SDG Obligatsiyasi UZS 2,5 trillion 14,0%
2023-yilga qadar (so'ndirilgan)
(buyurtmalar miqdori > UZS 3,55 trillion)
Iyul 2021



USD 555 million **3,7%** 2030-yilga qadar
(buyurtmalar miqdori > USD 3,9 milliard)
DFI Obligatsiyasi UZS 2.0tn 14.5% 2023 yilga qadar (so'ndirilgan)
(buyurtmalar miqdori > UZS 5.0 trillion)
Noyabr 2020



USD 500 million 4.75% 2024-yilga qadar (so'ndirilgan)
USD 500 million 5.375% 2029-yilga qadar
Buyurtmalar miqdori > USD 8.5 milliard
Fevral 2019

O'zbekiston korxonalari tomonidan amalga oshirilgan Euroobligatsiyalar emissiyasi

2019-yildan buyon O'zbekistonning korporativ Euroobligatsiyalar bozori jadal rivojlanib, **15** tranchedan iborat **11** ta emissiya orqali jami **4,785** milliard AQSH dollari **va 6,0 trillion** so'm miqdorida mablag' jalb qilindi. Bu jarayon korxonalar tomonidan xalqaro kapital bozorlariga chiqishga bo'lgan kuchli intilishni aks ettiradi. Ushbu emissiyalarda davlat korxonalari – jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati (**NKMK**), "**O'zbekneftgaz**" AJ va "**UzAuto**" kabi yirik kompaniyalar yetakchi rol o'ynadi. Ular yirik iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirishda muhim o'rinn tutib, mamlakat korporativ sektoridagi ta'sirini namoyon etdi.

Investorlar tomonidan talab yuqori bo'ldi, bu esa **Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK)** uchun **5,5** milliard AQSH dollari va "**O'zbekneftgaz**" AJ uchun **1,7** milliard AQSH dollari miqdoridagi maksimal buyurtmalar kitobi bilan tasdiqlanadi. Bu O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish yo'nalishiga va korporativ kreditga bo'lgan ishonch yuqoriligini ko'rsatadi. Bozor sohaga oid diversifikatsiyani ham namoyon etmoqda — emissiyalar bank sohasi, energetika va ishlab chiqarish kabi tarmoqlar vakillarini qamrab olib, asosiy iqtisodiy ishtirokchilarning keng ko'lamli qatnashuvini aks ettiradi.

2024-yil davomida "O'zsanoatqurilishbank" (SQB) tomonidan chiqarilgan **300** million AQSH dollari miqdoridagi **5,75%** lik obligatsiyalar hamda "**Ipoteka Bank**" (OTP) tomonidan chiqarilgan **785** milliard so'mlik **16,0%** lik obligatsiyalar to'liq qaytarildi. Bu esa bozorning izchil rivojlanib borayotganini va yetilayotganini yaqqol namoyon etadi.

2031-yilda muddati tugaydigan NKMK obligatsiyalari yirik loyihalarni uzoq muddatli moliyalashtirishga strategik e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Ipoteka Bank'ning **1,4** trillion so'mlik mahalliy valyutadagi emissiyasi esa valyuta xatarlarini kamaytirish va xorijiy investorlarni mahalliy bozorlarga jalb etishga xizmat qiladi.



NMMC

USD 500mln 6.7% 2028-yilda so'ndiriladi
USD 500mln 6.9% 2031-yilda so'ndiriladi.
Umumiyl buyurtmalar miqdori > USD 5.5mlrd
Oktabr 2024



Agrobank

400 mln AQSH dollari, 9.25% kupon,
2029-yilda so'ndiriladi
(1 mlrd AQSH dollari talab)
700 mlrd so'm, 21.75% kupon,
2026-yilda so'ndiriladi
(705 mlrd so'm talab)
Sentabr 2024



400 mln AQSH dollari, 8.95% kupon,
2029-yilda so'ndiriladi
(650 mln AQSH dollari talab)
2.5 trln so'm, 21.0% kupon,
2027-yilda so'ndiriladi
(2.3 trln so'm talab)
Iyul 2024



1.4 trln so'm, 20.5% kupon,
2027-yilda so'ndiriladi
Aprel 2024



UZBEKNFTEGAZ

700 mln AQSH dollari, 4.75% kupon,
2028-yilda so'ndiriladi
(1.7 mlrd AQSH dollari talab)

Noyabr 2021



O'ZMILLIYBANK

300 mln AQSH dollari, 4.85% kupon,
2025-yilda so'ndiriladi
(700 mln AQSH dollari talab)

Oktabr 2020



300 mln AQSH dollari, 5.5% kupon,
2025-yilda so'ndiriladi
(500 mln AQSH dollari talab)
Noyabr 2020



O'ZMILLIYBANK

300 mln AQSH dollari, 4.85% kupon,
2025-yilda so'ndiriladi
(700 mln AQSH dollari talab)

Oktabr 2020




300 mln AQSH dollari, 4.85% kupon,
2026-yilda so'ndiriladi
(1.4 mlrd. AQSH dollari talab)

Aprel 2021

Ikkilamchi savdo daromadlilik dinamikasi

(%)



Ikkilamchi savdo G-Spread dinamikasi



13.03.2025 sanasiga bozorda aktiv obligatsiyalar (Listingga kirgan)

Listingga kirgan	Tiker	ISIN	Nominal qiymat	Miqdori (dona)	Emissiya hajmi	Kupon stavkasi	Emissiya sanasi	So'ndirilish sanasi	Kupon to'lovi davri
"Asia Alliance Bank" ATB	AABK1	UZ6055797666	1 000 000,00	45 175	45 175 000 000	Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi + 4%	15.07.2019	15.07.2026	har chorakda
"Kapitalbank" ATB	KPB4	UZ6047447AA6	1 000 000,00	50 000	50 000 000 000	Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi + 4%	13.05.2020	21.05.2027	har oyda
	BFMT3	UZ6057687AA4	1 000 000,00	6 565	6 565 000 000	27.0%	16.09.2022	30.08.2025	har oyda
"Biznes finans mikromoliya tashkiloti MCHJ	BFMT3V2	UZ6057687AB2	100 000,00	200 000	20 000 000 000	27.0%	09.10.2023	13.09.2026	har oyda
	BFMT3V3	UZ6057687AC0	100 000,00	300 000	30 000 000 000	27.0%	05.12.2024	20.11.2027	har oyda
JSC "Imkon Finans mikromoliya tashkiloti"	IFMT3	UZ6056967AC7	1 000 000,00	6 000	6 000 000 000	28.0%	10.04.2023	25.03.2026	har oyda
	IFMT4	UZ6056967AD5	1 000 000,00	10 000	10 000 000 000	28.0%	24.04.2024	09.04.2027	har oyda
"Hamkor invest lizing" MCHJ	HKIL3	UZ6057757AB3	1 000 000,00	17 500	17 500 000 000	18.0%	25.04.2023	06.05.2026	har chorakda
"Hamkorbank" ATB	HMKB1	UZ6011340AA5	1 000 000,00	50 000	50 000 000 000	22.0%	30.04.2024	30.04.2025	So'ndirilish sanasida
"O`zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ	IQMK3	UZ6056887AA1	1 000 000,00	140 000	140 000 000 000	19.0%	20.12.2023	17.10.2026	har yarim yillikda
	IQMK3V2	UZ6056887AB9	1 000 000,00	150 000	150 000 000 000	19.0%	17.07.2024	08.07.2027	har yarim yillikda
	IQMK5E	UZ6056887AC7	1 000 000,00	50 000	50 000 000 000	18.0%	16.09.2024	18.09.2029	har chorakda
	IQMK3V4	UZ6056887AD5	1 000 000,00	250 000	250 000 000 000	19.0%	11.11.2024	17.11.2027	har chorakda
JSCB "TBC Bank"	TBC2B2	UZ6056857AB2	1 000	128 000 000	128 000 000 000	24.0 %	26.12.2024	24.12.2026	So'ndirilish sanasida

13.03.2025 sanasiga bozorda aktiv obligatsiyalar (Listingga kirmagan)

Listingga kirmagan	Tiker	ISIN	Nominal qiymat	Miqdori (dona)	Emissiya hajmi	Kupon stavkasi	Emissiya sanasi	So'ndirilish sanasi	Kupon to'lovi davri
"IMKON FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI" AJ	OIFM3	UZ6056967AB9	1 000 000,00	3 000	3 000 000 000	28,0%	02.08.2022	24.07.2025	Monthly
"UZREPORT" MCHJ	OUPT5	UZ6056997AA8	50 000 000,00	600	30 000 000 000	22,0%	17.12.2020	13.12.2025	Quarterly
"AKFA MEDLINE" MCHJ	OAFD5	UZ6057077AA8	10 000 000,00	21 100	21 100 000 000	CBU rate + 6,0%	11.05.2021	10.05.2026	Semi-Annually
"FAROVON HAYOT IFODASI" MCHJ	OFHI3	UZ6057567AA8	1 000 000,00	2 000	2 000 000 000	24,0%	22.04.2022	01.04.2025	Quarterly
